

**INSTITUTE FOR ADVANCED STUDIES
AT NEW UZBEKISTAN UNIVERSITY**

**“YANGI O‘ZBEKISTON” UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILG‘OR TADQIQOTLAR INSTITUTI**

100000, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, M. Ulug‘bek tumani, Movarounnahr
ko‘chasi, 1-uy. Tel.: +998 (71) 202-41-11



**Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasiga**

2025-yil 24-iyul 22-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-aprelda PQ–151-sonli qarorining 4-bandida “Yangi O‘zbekiston” universitetiga (keyingi o‘rinlarda – Universitet) faoliyatini strategik rivojlantirish bo‘yicha ilmiy unvonlar va ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar tuzish, ularning tarkibini tasdiqlash huquqi berilgan.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekiston” universiteti faoliyatini strategik rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning 6-bandida ilmiy unvonlar va ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar tuzish vazifasi belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosi doirasida, “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar institutida “Fizika-matematika” va “Texnika” fanlari bo‘yicha 01.03.01 - “Astronomiya” (fizika-matematika fanlari), 01.03.02 - “Kosmos fizikasi va Astrofizika” (fizika-matematika fanlari), 01.04.02 - “Nazariy fizika” (fizika-matematika fanlari) va 05.01.07 - “Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui” (fizika-matematika fanlari, texnika fanlari) ixtisosliklarini o‘z ichiga olgan fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/07.07.2025.FM/T.192.01 raqamli ilmiy kengash “Yangi O‘zbekiston” universiteti ilmiy-texnik kengashi yig‘ilishining 5-sonli majlisi bayoni bilan tuzilganligini ma’lum qilamiz.

Bayonnomadan ko‘chirma ilova qilinadi.

Direktor



B. Narzilloev